
ILMIY TADQIQOT ISHI BILAN SHUG'ULLANUVCHILARDA KONTENT-ANALIZ VA STATISTIK MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda kontent-analiz va statistik ma'lumotlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: kontent-analiz, statistik ma'lumotlar, ko'nikmalar, matnlar yozma, qo'lyozma, arxiv yozuvlari, ommaviy axborot vositalari, shaxsiy hujjat va kundaliklar, esdaliklar, tarjimai hollar, tavsifnomalar, dalolatnomalar.

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОНТЕНТ-АНАЛИЗА И СТАТИСТИКИ У ТЕХ, КТО ЗАНИМАЕТСЯ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТОЙ

Аннотация. В данной статье подчеркивается научная и практическая значимость формирования навыков контент-анализа и использования статистических данных у лиц, занимающихся научно-исследовательской работой.

Ключевые слова: контент-анализ, статистика, навыки, тексты письменные, рукописные, архивные записи, средства массовой информации, личные документы и дневники, мемуары, биографии, описания, акты.

FORMATION OF SKILLS FOR THE USE OF CONTENT ANALYSIS AND STATISTICS IN THOSE ENGAGED IN SCIENTIFIC RESEARCH WORK

Annotation. This article emphasizes the scientific and practical significance of developing skills in content analysis and the use of statistical data among individuals engaged in research work.

Keywords: content analysis, statistics, skills, texts written, manuscript, archival records, Media, personal document and diaries, memorabilia, biographies, descriptions, testimonials.

Kontent-analiz deganda hujjatlar to'plash va ulardan ilmiy maqsadga muvofiq foydalanish metodi nazarda tutiladi. Hujjatlar rasmiy va norasmiy turlarga bo'linadi. Rasmiy hujjatlarga parlamentlar, hukumat va davlat institutlari tomonidan qabul qilingan, maxsus tarzda qayd etilgan hujjatlar kiradi. Ushbu hujjatlar ko'pincha davlat arxivlari va idoralarida, muzeylarda, ba'zan esa shaxsiy kutubxonalarda saqlanadi. Norasmiy hujjatlarga u yoki bu shaxs tomonidan yozilgan yoki tasdiqlangan, oilaviy xarakterga ega, kishilararo munosabatlarga taalluqli bo'lgan hujjatlar, asar va matnlar kiradi. Bunday hujjatlar odatda turli ariza va murojaatnomalar, xatlar, qo'lyozma tarzidagi matnlar, kitoblar, xomaki yozuvlar bo'ladi. Ular qo'lyozmalar institutlari, muzeylar, kutubxonalar, oilaviy yoki shaxsiy fondlarda saqlanadi. Ilmiy izlanishlarda ko'p uchraydigani rasmiy hujjatlardan foydalanishdir. Masalan, yuridik sohadagi ilmiy izlanishlarda asosan parlamentlar tomonidan qabul qilingan qonunlar, shartnomalar, murojaatnomalar, hukumat rahbari qabul qilgan qarorlar, buyruqlar, dasturiy hujjatlar, rejalar kabilarga murojaat etiladi, ular tahlil qilinadi. Shuningdek, huquqshunoslar hukumat tomonidan qabul qilingan rasmiy hujjatlarni, davlat institutlari qabul qilgan qarorlar va qonunosti hujjatlarini, jamoat tashkilotlari, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida qo'llayotgan normativ ko'rsatmalarni ham o'rganadilar. Qanday hujjatlardan foydalanishni tadqiqotchining o'zi hal qiladi. Ammo bu ilmiy maqsadga bog'liq

bo'lishi, muammoni o'rganishga, uni obyektiv tadqiq etishga xizmat qilishi lozim. Hujjatlardan foydalanish ilmiy tadqiqotning qimmatini oshiradi, unda obyektivlikni ta'minlaydi. To'g'ri, tadqiqotchi hujjatning mavjudligini qayd etish bilan chegaralanmaydi, u matnlarning mohiyatini tahlil qiladi va ilmiy maqsadiga muvofiq ularga baho beradi.

Yozma manba va matnlar yozma, qo'lyozma, arxiv yozuvlari, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, magnitofon, videotasvir, diktofon kabilardagi yozuvlar, shaxsiy hujjat va kundaliklar, esdaliklar, tarjimai hollar, tavsifnomalar, dalolatnomalar kabi ko'rinishlarda mavjuddir. Mazkur hujjatlar ilmiy muammoni obyektiv tadqiq qilishga yordam beradi. Biroq hujjatlarda o'z davrining va muallif shaxsiy kechinmalarining ta'siri borligini yoddan chiqarib bo'lmaydi. Ular har doim ham real hayotga, undagi jarayonlarga muvofiq kelavermaydi. Demak, hujjatlardan foydalanish ilmiy muammoni o'rganishning yagona usuli emas, u boshqa usullar bilan yonma-yon foydalanilganida, ilmiy maqsadga xizmat qiladi. Hujjatlar konstruktiv, ekzemplifikatsiya, matn mohiyatini o'rganish, statistik ma'lumotlarni jamlash, tipologik tahlil usullari orqali tadqiq etiladi. Konstruktiv usul hujjatlardagi ijtimoiy-amaliy, davr ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan manbalarni, fikr, tavsiya va matnlarni o'rganishga qaratiladi. U hujjatlarning mohiyatidagi ilmiy muammoga yoki uning yechimiga taalluqli bo'lgan, zamonaviy masalalarni konstruktiv hal etishga qaratilgan jihatlarga ega bo'lgani uchun qimmatlidir. Konstruktiv usul hujjatlarni obyektiv tahlil qilishga xalaqit bermasligi zarur. Ijtimoiy-amaliy ehtiyoj hujjatlarni davr talablariga muvofiq soxtalashtirishga asos bo'lolmaydi. Hujjatlarga obyektiv yondashish ilmiy tadqiqotlardagi asosiy talablardan biridir. Ekzemplifikatsiya deganda hujjatlarning yagonaligini, kamdankam holda ularning boshqa nusxalarda uchrashini, shuning uchun ilmiy tadqiqotlarda ularning nafaqat qimmatli manba ekanini, shuningdek, tor, goho noto'g'ri fikrlar ham uyg'otishini nazarda tutish tushuniladi. Ha, tarixiy hujjatlar, manbalar ko'pincha bir nusxada uchraydi. Ammo ular qanchalik qimmatli bo'lmasin butun ilmiy muammoning yechimiga mutlaq asos bo'lolmaydi. Ularning nusxalari boshqa hujjatlar bilan qiyoslanishi, to'ldirilishi zarur. Tadqiqotchining diqqati matn mohiyatini, ya'ni hujjatda nima nazarda tutilayotganiga, qanday masalalar qo'yilayotganiga yoki muhokama qilinayotganiga, muammolarni hal etish uchun nimalar, qanday usullar tavsiya etilayotganiga qaratilishi darkor.

Matnda davr xususiyatlari, fikrlash stilistikasi, shaxslarning individual-sensitiv kechinmalari va munosabatlari aks etadi. Ularning barchasini tadqiqotga ko'chirib yoki muammoni ularga qurib bo'lmaydi. Tadqiqotchi qaysi fikrni, manbani yoki qarorni tanlashini bilishi lozim, aks holda matnlarga ko'milib ular tagidan chiqa olmay qoladi, vaqti va kuchini nokerak narsalarga sarf etadi. Metodlarning samarasi shundaki, ular tadqiqotchini aniq maqsadga tez, oson, samarali yetish texnologiyasi bilan qurollantiradi, uning vaqti va kuchini tejaydi, tadqiqotning ilmiy ratsionalligini ta'minlaydi. Statistik ma'lumotlarni to'plash va ulardan samarali, o'rinli foydalanish tadqiqotchining ilmiy qobiliyatini ko'rsatadi. Ulardan ilmiy xulosalar chiqarish tadqiqotning ishonchliligini, asosililigini oshiradi. Statistik ma'lumotlar faqat statistika institutlari tarqatadigan raqamlar, ma'lumotlargina emas. Bunday raqamlar va ma'lumotlar asarlar, to'plamlar, turli hisobotlar, hatto shaxsiy hujjatlarda ham uchraydi. Ilmiy tadqiqotlarda ko'pincha rasmiy statistikadan foydalaniladi. Ular, birinchidan, butun mamlakat, hududlarni qamrab oladi; ikkinchidan, maxsus tekshiruvlardan o'tadi; uchinchidan, ma'lumotlar uchun mas'ul idora yoki shaxs mavjud. Ishonchli, maxsus tekshiruvlardan o'tgan manbalarga tayanish ilmiy tadqiqotlar oldiga qo'yiladigan talabdir. Tipologik tahlil deganda rang-barang manbalar va ma'lumotlarni ilmiy maqsadga xizmat qiladigan mavzular bo'yicha guruhlash, ularning umumiy, tipologik xususiyatlarini topish nazarda tutiladi. Kontent-analiz paytida tadqiqotchi turli. Goho bir-biriga zid, ba'zan esa muammoga aloqasi yo'q matn va manbalarga duch keladi. Ularni tipologik saralamay, eng zarur, zarur va mavzuga aloqasi yo'q guruhlariga ajratmay, tadqiqotchi ko'zlagan maqsadiga erisha olmaydi, tadqiqotini eng muhim asosdan, ya'ni faktik materiallardan mahrum qiladi. Statistik ma'lumotlar asosan raqam-ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Raqam-ko'rsatkichlar voqea-hodisalarni sonlar orqali ifodalanishidir. Raqam-ko'rsatkichlar voqea-hodisalarning sonini, muddatini, eni, uzunligi, vaqt va makonda kechishini, dinamik o'zgarishini,

40 hatto sifatlarini ifoda etishi mumkin. Ular muammoni matematik modellashirishga, aniq va lo'nda ifodalashga yordam beradi.

Statistik ma'lumotlardan foydalanish ilmiy maqsad doirasida bo'lishi kerak, ulardan haddan tashqari ko'p foydalanish analiz va sintez ahamiyatini susaytiradi. Ilmiy xulosalar chiqarish imkonini cheklaydi. Shuning uchun statistik ma'lumotlar ilmiy maqsadga yetishga, gipotezani asoslashga yordam beradigan yordamchi usuldir. Statistika va induksiya-deduksiya metodlari bir-birini to'ldirib keladi. Induksiya va deduksiya nazariy mushohadalarga qurilganidek, statistika ham pirovard natijada nazariy mushohadalarga yetaklaydi. Umumiydan xususiyga yoki xususiydan umumiyga borish asosan nazariy mushohadalar orqali amalga oshirilganidek, statistika raqam-ko'rsatkichlar doirasida qola olmaydi, demak, har qanday ilmiy tadqiqot nazariy mushohadalari bilan qimmatlidir. Ko'pincha statistik ma'lumotlardan induktiv usul sifatida foydalanishadi, ya'ni ayrim olingan statistik ma'lumotlardan deduktiv xulosalar chiqarishadi. Bunday yondashuv voqea-hodisalarni jo'n tushunish mahsulidir. Raqam-ko'rsatkichlar induktiv pog'onada qola olmaydi, ular davom ettirilishi, deduktiv xulosalar chiqarish darajasiga yetkazilishi zarur. Aks holda har qanday raqam-ko'rsatkich umumiy xulosa chiqarishga asos qilib olinadi, umumiyga xos bo'lgan jihatlar – ko'p funktsionallik, rang-baranglik, ziddiyatlilik, oxir natijada esa obyektivlik prinsipi buziladi. Obyektiv olam rang-barang predmetlardan iborat. Ularni sonda ko'rsatish qiyin emas, ammo tadqiqot mazkur predmetlarning sonini qayd etishga yoki sanashga qaratilmaydi.

Tadqiqot eng avvalo predmetning mohiyatini, immanent xususiyatlarini, uni real holatdan ideal holatga yuksaltirish mexanizmlarini topishga qaratiladi. Ushbu belgilar va mexanizmlarni umumiy nazariy mushohadalar, falsafiy pastulatlar, g'oya va fikrlar orqali ifodalash mumkin. To'g'ri, bu yondashish ham obyektiv olamni to'liq ifoda etolmaydi, ammo inson bilimi, ongi va tafakkuri boshqa yondashuvni hali kashf etgan emas. Demak, statistika metodi ham cheklangandir, u falsafiy nazariy mushohadalarga xizmat qilib, o'zining ilmiy ahamiyatini isbot etadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarning konyuktur xususiyatga ega ekanini unutilib bo'lmaydi. Ular rasmiy idoralar ixtiyoridagi ma'lumotlar bo'lgani uchun u yoki bu tomonga o'zgartirilishi, goho soxtalashtirilishi mumkin. Kuzatishlar ko'rsatadiki, boshqarishda valyuntarizm kuchayganida statistik ma'lumotlar soxtalashtiriladi, obyekt (predmet)ning real holatiga zid raqam-ko'rsatkichlar paydobo'ladi. Shuning uchun rasmiy statistika obyekt (predmet)ning real holatiga solishtirilishi lozim. To'g'ri, buni har doim ham amalga oshirish imkoni yo'q. Ayniqsa, butun mamlakat yoki undagi rangbarang ijtimoiy munosabatlar tadqiqot obyektini qilib olinganida, bunday solishtirishga imkon bo'lmaydi. Bu paytda real hayotdagi ayrim misollarga yoki hodisalarga murojaat etiladi. Ammo ayrim misollar yoki hodisalar hali rasmiy statistik ma'lumotlarni mutlaq rad etishga asos bo'lolmaydi, ular, ya'ni ayrim misollar va hodisalar rasmiy statistikani inkor qilishga ham qaratilishi ham mumkin emas. Ayrim misollar va hodisalar statistik ma'lumotlar ma'lum bir sabablarga ko'ra hisobga olinmagan jihatlar ham borligini ko'rsatadi. Rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanganda, quyidagilarga e'tibor berish tavsiya qilinadi:

– raqam-ko'rsatkichlarning obyekt (predmet)ning real holatiga muvofiq kelishiga; – obyekt (predmet)ning rivojlanish dinamikasiga zid kelmasligiga;

– norasmiy ma'lumotlar bilan qiyoslanishi yoki to'ldirilishi mumkinligiga;

– ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni o'zida ifoda etishiga. Agar statistik ma'lumotlar obyekt (predmet)ning real holatini ifoda etmasa, ularni tanqidiy baholashdan qaytmaslik lozim. Ammo ushbu tanqid ilmiy ratsional bo'lishi, ilmiy maqsadga xizmat qilishi kerak. Ayniqsa, o'tmishni baholaganda, o'tmishdagi voqeahodisalarga oid rasmiy ma'lumotlarga murojaat etganda, ularning o'sha davr uchun pozitiv ahamiyatga ega bo'lganini unutmaslik darkor. O'tmish o'zidan avvalgi o'tmish, davr, bosqich bilan qiyoslanishi shart. O'tmishning zamonaviy bosqichga mos kelmaydigan tomonlarini topish oson, ammo uning o'zidan avvalgi davr, bosqich bilan qiyoslash obyektivdir. Rasmiy statistik ma'lumotlardan deduktiv xulosalar chiqarishga shoshmaslik kerak. Ularga shubha bilan qarash ilmiy tafakkurning xususiyatidir. Obyekt (predmet)ning real holati, undagi dinamik o'zgarishlar goho rasmiy statistikada yetarli aks etmasligi mumkin. Bunday

taqdirda, rasmiy statistika bilan chegaralanib qolmaslik, balki uni norasmiy ma'lumotlar bilan qiyoslash, to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Norasmiy statistik ma'lumotlar shaxsiy, keng miqyosda tasdiqlanmagan, individual-sensitiv kechinmalarga qurilgan bo'lishi, hatto rasmiy statistik ma'lumotlarga zid kelishi mumkin. Avtobiografik hujjatlar, tavsiyanoma va tavsifnomalar, kundaliklar, badiiy yoki publitsistik asarlar, ariza va shikoyatlardagi ma'lumotlar rasmiy statistik ma'lumotlardan farq qiladi. Ulardan qaysi biriga tayanishni tadqiqotchining o'zi hal qiladi. Bu o'rinda tadqiqotchining ilm-fan oldidagi mas'ulligi, vijdoni va izlanuvchanlik etikasi muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimov T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
7. Xolboyeva G., & Olimov, T. (2023). O'SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
8. Olimov T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.